

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M.Temirova	
O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q.Sulaymonov	
Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni	213
X.E.Xodjamberdiyev	
Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev	
Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M.Abdullayeva	
Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F.Abdurasulova	
Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi davrida rivojlanishi	232
A.A.Aloxunov	
Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati.....	236
M.B.Siddiqov	
Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi	241
G.A.Abdug'aniyeva	
Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V.Abdullayeva	
Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q.Mamatova	
Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y.O'roqova	
Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A.Qahharova	
Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A.Xaqnazarova	
An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M.Islomova	
Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova	
Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida)	294
Y.B.Eshmatova	
Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi.....	299
Д. О.Турдалиев	
Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B.Sultonqulova	
Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiat.....	306
G.A.Jurayeva	
Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



UO'K: 364.013: 94(575.172)

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA PENSIYA TIZIMI**ПЕНСИОННАЯ СИСТЕМА В ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ****PENSION SYSTEM DURING WORLD WAR II****Siddiqov Mirshod Baxtiyorovich** 

O'zbekiston fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada pensiya tizimining shakllanishi, urush yillarida harbiy xizmatchilarining oilalariga hamda urush nogironlariga pensiya to'lash tartibi, bu borada ularga berilgan imtiozlar tahlil qilindi. Shuningdek, pensiya tayinlashda byurokratik holatlari ko'zga tashlanganligi, qonunda belgilangan nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga pensiya bermaslik hamda pensiya va nafaqalarning o'z vaqtida tayinlanmasligi holatlari o'z aksini topgan.

Аннотация

В данной статье проанализировано формирование пенсионной системы, порядок выплаты пенсий семьям военнослужащих и инвалидов войны в годы войны, а также льготы, предоставляемые им в связи с этим. Также отражены бюрократические ситуации при назначении пенсий, неназначении пенсий гражданам, имеющим право на получение установленных законом льгот, а также случаи неназначения пенсий и пособий в установленные сроки.

Abstract

This article analyzed the formation of the pension system, the procedure for paying pensions to the families of military servicemen and war disabled people during the war years, and the benefits given to them in this regard. Also, the bureaucratic situations in the appointment of pensions, non-granting of pensions to citizens who have the right to receive benefits established by law, and cases of non-appointment of pensions and benefits on time have been reflected.

Kalit so'zlar: Pensiya, imtioz, pochta, tibbiy mehnat ekspert komissiyasi, mehnat daftarchasi, front**Ключевые слова:** Пенсия, пособия, почта, врачебно-трудовая экспертная комиссия, трудовая книжка, фронт**Key words:** Pension, benefits, mail, medical labor expert commission, work book, front**KIRISH**

Mehnatga layoqati bo'limgan aholini davlat tomonidan ijtimoiy ta'minlash masalasi O'zbekiston SSR konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Jumladan, konstitutsiyaning 119-moddasida quyidagicha yozilgan: "O'zbekiston fuqarolari qarigan vaqtlarida, shuningdek, kasal bo'lgan va mehnatga yaroqsiz bo'lib qolganlarida moddiy ta'minot olish huquqiga egadirlar".[8; 26]

Ikkinci jahon urushi boshlanib, iqtisodiy holat tang ahvolda bo'lishiga qaramay, ijtimoiy ta'minotga muhtoj aholi qatlamlariga, urush nogironlariga, harbiy xizmatchilarining oilalariga e'tibor susaymadi. Aksincha xalqning moddiy, maishiy va madaniy turmush sharoitini yaxshilash borasida ishlar amalga oshirildi. Jumladan, pensiya ta'minot tizimi borasida bir qator qonunlar qabul qilinib, urush nogironlari, mehnatga qobilyatsizlar, boquvchisini yo'qotgan shaxslarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilib, ularga nafaqa⁴¹ va pensiyalar⁴² tayinlandi. Pensiya ta'minoti keksalarni hamda jamiyatning ishga layoqatsiz a'zolarini moddiy tomonidan ta'min etadigan asosiy manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ikkinci jahon urushida harbiy xizmatchilarining oilalariga hamda urush nogironlariga pensiya va nafaqa to'lash borasida F.Boyahmedov[2], S.Mirzahmedova[3], J.Burxonov[1] larning ma'lumotlari, shuningdek, arxiv hujjatlari (O'zMA, R-96-jamg'arma) muhim ahamiyatga ega.

⁴¹ Nafaqa – muxtoj odamlarga davlat, korxona, muassasa va ayrim shaxslar tomonidan beriladigan yordam puli.⁴² Pensiyalar – (lit. Pension – to'lov) – fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to'lanadigan to'lovlar.

Tadqiqot davomida asosan birlamchi manbalarga tayangan holda pensiya to'lash borasidagi kamchiliklar tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mehnatga qobiliyatsiz shaxslar qarilik yoshiga yetganda yoki nogiron bo'lib qolganlarida pensiya olish huquqiga ega hisoblangan. 1928-yildan 1937-yilgacha respublikada qarilik pensiyasi ta'minoti dastlab faqat ishchilar uchun, keyinchalik xizmatchilar uchun amalga oshirilgan.[3; 10] Keyingi yillarda nogironlik va boquvchisini yoqotganligi uchun pensiya ta'minoti bilan bog'liq tartib-qoidalar ishlab chiqildi.

SSSR XKS, VKP (b) MKning 1939-yil 28-dekabrda "Mehnat intizomini tartibga solish, davlat ijtimoiy himoya tizimini yaxshilash va bu ishdagi suistemolliklar bilan kurash tadbirlari to'g'risida" gi qaror qabul qilgan edi.[9; 1] Unga ko'ra, urush nogironlari va ularning oilalari uchun nizomda ko'rsatilgan hujjatlar talab etilib, pensiya tayinlash ariza beruvchining yashab turgan joyidagi ta'minot bo'limiga yozib berilardi. Nogironlar mehnat qobiliyatini qay darajada yo'qotganlariga qarab 3 guruuga bo'lingan va shunga qarab ularga pensiya miqdori tayin qilingan.[6; 223] Shuningdek, zarur hujjatlar bo'limgan taqdirda mehnat stoji pensiyalar tayinlovchi komissiya tomonidan, guvohlarning ko'rsatilishi va boshqa ma'lumotlar asosida belgilangan. Komissiya pensiya tayinlash ishlarini, hamma zarur hujjatlar olgandan keyin, 10 kun ichida hal qilishi kerak bo'lgan.[9; 2] Biroq amalda ko'pincha bunga amal qilinmagan. Pensiya tayinlangan kishiga shaxsiy kartochka tuzilgan va unga pensiya guvohnonamasи berilgan.

Ish stajini tasdiqlaydigan asosiy hujjat har bir ishchi va xizmatchining mehnat daftarchasi hisoblangan. Mehnat daftarchalari 1939-yilda joriy qilingan bo'lib[1;9], u har bir xodimning ishga kirgani, boshqa ishga ko'chgani, ishdan bo'shagani va mukofot olgani ya'ni barcha ish faoliyatlarini ko'rsatuvchi yagona hujjat hisoblangan. Mehnat daftarchasi joriy etilmasdan ilgari ish staji yuritiladigan mehnat ro'yatlari asosida amalga oshirilgan.

Ishchi yoki xizmatchi bo'lib korxonalarda ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalar shahar va tuman ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan pochta orqali to'langan. Biroq pensionerlarga nafaqa to'lash pul tashuvchilarning sust harakatlanishi sababli oylab yetkazib bermaslik holatlari ham uchrab turgan. Buning ustiga pensionerlarga xizmat ko'rsatish uchun pochta bo'limiga 2% miqdorda naqd pul to'lovi olingan. Bundan tashqari, nafaqa va pensiyalar ba'zi hududlarda kolxozning xo'jalik ehtiyojlariiga sarf qilinish holatlari kuzatilgan.

Pensiya tizimi-qarilik pensiyalari, nogironlik bo'yicha pensiyalar, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari, uzoq muddatli xizmat uchun pensiyalarni kabi turlarga bo'linadi. Jumladan, ishchi va xizmatchilar qarilik pensiyasi umumiylashtirilgan asoslarda erkaklar uchun 60 yosh hamda kamida 25 yil ish stajiga, ayollar uchun esa 55 yosh va 20 yil ish stajiga ega bo'lganlarda tayinlangan. Yuqorida pensiya yoshi dastlab 1928-yilda joriy qilingan.[5; 8] Biroq ba'zi berilgan imtiyozlarga ko'ra, harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga pensiya yoshi kamaytirilgan.

Bundan tashqari, urushdan oldingi yillarda quyidagi guruuh vakillariga ish stajiga qarab ustama foiz bilan ham pensiya to'langan.[15; 99]

1-jadval

Guruuhlar	Uzlucksiz staj	Belgilangan pensiyaga ustama foiz
1-guruuh. Yer ostida og'ir va zararli ishlarda ishlovchilar uchun	3 yildan 5 yilgacha 5 yilda 10 yilgacha 10 yildan ortiq	5 % 20 % 25 %
2-guruuh: mashinasozlik, metallurgiya, elektr texnika, ko'mir, konchilik, neft, kimyo sanoati korxonalarining ishchilarini va xizmatchilari uchun	4 yidan 8 yilgacha 8 yildan 12 yilgacha 12 yildan ortiq	10 % 15 % 20 %
3-guruuh qolgan ishchilar va xizmatchilar uchun	5 yildan 10 yilgacha 10 yildan 15 yilgacha 15 yildan ortiq	10 % 15 % 20 %

Yuqorida jadvalga bajariladigan mehnatning og'ir va zararligiga hamda ishchilarning doimiy ish stajiga qarab pensiyaga to'lanadigan ustama foiz oshib borganligini ko'rish mumkin. Qarilik pensiyasi ishga yaroqli bo'lishidan qat'iy nazar umrbod tayinlangan. Pensioner boshqa shaharga

TARIX

ko'chganda, bu haqida o'ziga pensiya to'laydigan ijtimoiy ta'minot bo'limiga bildirishi lozim bo'lgan. Boshqa joyga vaqtinchalik ketadigan (*davolanish uchun, oilaviy sabablar va boshqa shu kabi sabablar bilan*) pensionerlarga pensiya doimiy turgan joyida eng ko'pi bilan 3 oy davomida to'langan.

Ishchi va xizmatchilar mehnat qobiliyatini doimiy yoki vaqtinchalik yo'qotganlarida nogironlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lganlar. Agar kimdir ish vaqtida o'g'ir jarohat olib vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotadigan bo'lsa, nafaqa u sog'ayib ketgunga qadar to'langan. SSSR XKSning 1940-yil 16-iyulda chiqarilgan 1269-sonli "Muddatli xizmatdagi oddiy va kichik boshliqlar jamoasidagi harbiy xizmatchilarga va ularning oilalariga pensiyalar to'lash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, harbiy xizmatchilarning 1938-yil 1-yanvar kunigacha nogiron bo'lganlarni pensiya bilan ta'min qilingan. 1938-yil 1-yanvardan keyin nogiron bo'lganlari va ularning oila a'zolari pensiya bilan 1940-yil 16-iyulda chiqarilgan qaroriga muvofiq to'langan.[10; 223] Shuningdek, qarorga ko'ra Jang vaqtlarida bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchilarning oilalari, frontda halok bo'lganlarning oilalari bilan bir qatorda pensiya olishga haqli hisoblangan. Agarda harbiy xizmatchi asirga tushib, vatanga xiyonat qilinganligi aniqlansa hech qanday pensiya va yordam pullari tayinlanmagan. Nogironlik bo'yicha pensiyalar urush nogironlariga harbiy xizmati qancha davom etganligidan va undan oldin qancha ishlaganligidan qat'iy nazar belgilangan. Bir yo'la bir necha turdag'i pensiya olish huquqiga ega bo'lgan pensionerlarga ularning xohishiga ko'ra, bir turdag'i pensiya tanlash imkoniyati mavjud bo'lgan. Agar harbiy xizmatchining oila a'zolari boshqa-boshqa hududlarda istiqomat qilsalar belgilangan pensiya va yordam o'zaro taqsimlangan.[10; 223]

Yuqoridagi qarorga muvofiq O'zbekiston SSR XKS tomonidan 1941-yil 19-aprelda "Harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga hamda nogironlar (*urush nogironlari, qarilik, tasodifiy va tug'ma nogironlar*) ga beriladigan pensiya va yordam pullarining miqdorlari tog'risida"gi 387-sonli qarori qabul qilingan.[17; 128-129]. Unga ko'ra, nogironlik pensiyasi quyidagi miqdorda tayinlangan.

2-jadval

Pensiya oluvchilarning guruhi	1 oylik uchun pensiya	
	Qishloq xo'jaliklari bilan bog'liq bo'Imagan kishilar uchun	Qishloq xo'jaliklari bilan bog'liq bo'lgan kishilar uchun
Harbiy xizmatchilar	1-guruh nogironlar	97,50
	2-guruh nogironlar	67,50
Imperialistik urush nogironlari	1-guruh nogironlar	37,50
	2-guruh nogironlar	22,50
Qarilik, tasodifiy va tug'ma nogironlar	1-guruh nogironlar	25
	2-guruh nogironlar	15
		9

Jadvalda ko'rsatilgan pensiya miqdorlari 1938-yil 1-yanvargacha bo'lgan harbiy xizmat vaqtida nogiron bo'lgan yoki kasallanish natijasida mehnat qobiliyatini yoqotganlar uchun belgilangan. Pensiya miqdori nogironlik guruhi, oilaviy sharoitiga qarab tayinlangan. Bundan tashqari qarorga muvofiq, quyidagi imtiyozlar berish ko'zda tutilgan. *Birinchidan*, ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan pensiya bilan taminlanib turadigan kishilarga yangi tug'ilgan bolalarni tarbiyalash uchun 45 so'm bir yo'la yordam puli; bolalarni ovqati uchun tug'ilgan kundan to 9 oy davomida har oyda 10 so'mdan ikki muddatda yordam berilgan. Ya'ni bir yo'la berilganda 40 so'm va 5 oy uchun qolgan 50 so'm oyma-oy to'lab borilgan, *ikkinchidan*, vafot etgan kishini dafn etish uchun 10 yoshgacha bo'lganda 20 so'm, 10 yoshdan oshiqligida 40 so'm miqdorda yordam puli berilgan.[17; 129]

Harbiy xizmatchilar nogiron bo'lib qolganlarida va bu qancha muddat davom etganligidan qat'iy nazar ularning oilalariga pensiya tayinlangan. Pensiya harbiy xizmatchining bedarak yoki o'lgan kunidan boshlab belgilangan. O'z vaqtida olinmagan yordam puli yoki pensiyani istalgan vaqtida to'liq olish imkoniyati mavjud bo'lgan. 1943-yil 1-iyundan joriy etilgan qo'llanmaga asosan shaharda va qishloqda yashovchi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga to'lanishi lozim bo'lgan pensiya miqdori keltirilgan. Unga ko'ra, harbiy xizmatchilarning pensiya hamda yordam pullari bir biridan farq qilgan. Bunga sabab harbiy xizmatchilarning armiya safiga chaqirilishidan ilgari ishlagan yoki ishlamaganligi, ish stajiga egaligi, harbiy xizmatchilarning o'lim sabablari (*frontda halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oilalariga beriladigan pensiyalar; harbiy xizmat maburiyatarini*

bajarishga bog'liq bo'Imagan baxtsizliklar hodisalari sababli vafot etgan harbiy xizmatchilarning oilalariga beriladigan pensiyalar) hamda oila a'zolarining ishga layoqatligi yoki layoqatsizligiga qarab pensiya miqdorlari ham turli xil ko'rinishga ega bo'lgan.[15; 154-155].

Shuningdek, Qishloq joylarida turadigan va qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga yordam shaharda turuvchilar uchun belgilangan yordamning 50 % miqdorda belgilangan. Pensiya miqdori harbiy xizmatchi o'limining sababiga hamda uning armiyaga chaqirilishidan ilgarigi xizmatning xarakteriga qarab belgilangan

SSSR xalq komissarlari sovetining 1943-yil 17-iyuldagagi chiqargan 668-sonli qarori bilan tasdiq qilingan qo'llanmaning 9-moddasiga binoan yordam faqat harbiy xizmatchining o'z bolalariga to'lanib, bu tartibda harbiy xizmatchining aka-uka, opa-singillariga to'lanmagan. Harbiy xizmatchi yoki uning xotini tomonidan bola asrab olganlar harbiy xizmatchining bolalari barobarida ta'minlangan.[15; 166]

Shuningdek, alohida xizmat ko'rsatgan kishilar uchun shaxsiy pensiya tayinlangan. Shaxsiy pensiya va yordam olish huquqiga mehnat qahramonlari, sovet ittifoqi qahramonlari, "Qahramon ona" degan faxriy unvon berilgan kishilar, SSSR va O'zbekiston SSR hukumatining bir yoki bir nechta ordenlari bilan mukofotlangan kishilar, belgilangan tartibda faxriy unvon olgan kishilar ega bo'lgan. Shaxsiy pensiyalarning miqdori pensiya tayinlanadigan kishining alohida ko'rsatgan xizmatlari darajasiga hamda uning ish-faoliyatiga qarab belgilangan. Ammo 100 so'mda kam va 600 so'mdan oshiq bo'lishi mumkin bo'Imagan.[11; 900] Respublika ahamiyatidagi shaxsiy pensiyalarni, bir martalik yordam pullarini to'lash va dam olish sihatgohlariga yuborish uchun zarur mablag'lar O'zbekiston SSR Ijtimoiy Ta'minot Xalq Komissarligining tasdiqlangan rejasি bo'yicha O'zbekiston SSR budgeti hisobidan berilgan.

Shu bilan birga urush qahramoni oilalariga ham pensiya va nafaqalar joriy qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi A. Abdurahmonov 1943-yil 26-iyul 938-sonli "Sovet Ittifoqi Qahramoni"⁴³ Kamol Po'latov xotirasini abadiylashtirish va oilasini ta'minlash to'g'risida"gi farmon bo'yicha Romitan shahridagi 2-sonli mehribonlik uyiga Kamol Po'latov nomi berilgan, Buxoro viloyati Romitan tumani Lenin nomidagi kolxoza marmardan yodgorlik lavhasi o'rnatildi, shuningdek, Kamol Po'latovning o'g'li Rauf Po'latovga 1943-yil 1-maydan boshlab u voyaga yetgunga qadar oyiga 200 rubl miqdorida shaxsiy pensiya tayinlangan.[13; 60] Shuningdek, O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi pensiya va kadrlar akademiyasi bo'limi mudiri Ugreninovning ma'lumot berishicha, O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashi huzuridagi Pensiya tayinlash bo'yicha Markaziy komissiyaning 1944-yil 1-martdagи bayonnomasi bilan urushda o'zining qahramonligi bilan dong chiqargan Zebo G'aniyevaga oyiga 500 rubl miqdorida pensiya tayinlangan.[19; 10]

Bundan tashqari, hukumat a'zolarining oila a'zolariga ham nafaqa va pensiyani to'lash holatlarini uchratish mumkin. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1943-yilgi O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining vafot etgan raisi "Yo'Idosh Oxunboboyevning oilasini ta'minlash to'g'risida" gi qaroriga binoan, Oxunboboyevning xotini Adolatxon Oxunboboyevga 10000 so'm miqdorda bir yo'la nafaqa berildi. Oilasiga shaxsiy pensiya tayinlanib, xotini Adolatxon Oxunboboyevga umrbod oyiga 1000 so'mdan, o'g'li Ergash Oxunboboyevga balog'atga yetguncha oyiga 300 so'm tayinlangan.[7; 60] 1943-yil noyabr oyida esa marhum Surxondaryo viloyati rahbari Vasiyevning onasi va qiziga pensiya tayinlash to'g'risida qaroriga binoan og'ir kasallikdan so'ng vafot etgan Surxondaryo viloyati sobiq boshlig'i Vasiyevning onasi Samarqand shahri Ittifoq ko'chasida yashovchi Vasiyevaga umrbod 200 rubl, qizi Hakimova Svetlanaga oyiga 150 rubl miqdorda pensiya tayinlangan.[18; 152]

Urushdan keyingi yillarda ham harbiy xizmatchilarning oila a'zolari hamda urush nogironlarining pensiya miqdorini oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilingan. Jumladan, SSSR Xalq Komissarlari Kengashining 1946-yil 28-yanvardagi 231-sonli "Urush qatnashchilarining 1-guruh nogironlari uchun pensiya miqdorini oshirish to'g'risida"gi qarorini e'lon qilingan edi. Qarorga ko'ra, harbiy xizmatning majburiyatlarini bajarishda jarohatlar yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasalliklar tufayli 1-guruh nogironi bo'lgan harbiy xizmatchilar uchun pensiyalarning eng kam miqdori oyiga 300 rubl miqdorida, harbiy xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'Imagan 1-guruh nogironlarning

⁴³ Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni 1934-yil 16-aprelda ta'sis etilgan.

TARIX

pensiya miqdori esa harbiy xizmatchilar uchun belgilangan pensiya miqdoridan 20 foizga kam bo'lgan.[14; 34]

Urush yillarda harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolariga pensiya va nafaqa tayinlashda alohida e'tibor berilib, bir qancha qarorlar qabul qilingan bo'lsada, ba'zi bir hududlarda uning ijrosi borasida xato va kamchiliklar ham uchrab turgan. *Birinchidan*, pensiya tayinlashda byurokratik holatlari ko'zga tashlanib, qonunda belgilangan nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga pensiya bermaslik, aksincha pensiya olish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarga esa pensiya tayinlash, *ikkinchidan*, pensiya va nafaqalarning o'z vaqtida tayinlanmasligi holatlari uchrab turgan.

Nogironlarni qayta tekshirish natijasida tuman kengashlarining aksariyatida pensiyalarini noto'g'ri tayinlash holatlari yuz berganligi aniqlandi. Pensiyalar hujjatlarni tekshirmasdan, ish stajini aniq belgilamasdan, TMEKni qayta tekshirish muddatlariga rioya qilmasdan tayinlangan. Ijtimoiy ta'minot Xalq Komissarligida mavjud bo'lgan materiallar urush va mehnat nogironlariga pensiyalarini noto'g'ri tayinlashning ko'plab holatlarini tasdiqlaydi, buning natijasida pensiyalar ortiqcha yoki kam to'langan.

1943-yilgi ma'lumotga ko'ra, 523 811 nafar harbiy xizmatchilarning oilalari tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ro'yxatga olingan. Shu bilan birga, davlat tomonidan pensiya va nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan, ammo turli sabablarga ko'ra, ularni olmagan 20 ming 530 nafar harbiy xizmatchilar oilasi aniqlangan. Masalan, harbiy xizmatchi Valishaganbekovning mehnatga layoqatli xotini va 2 nafar yosh farzandi bo'lishiga qaramay, bu oilaga 1942-yil 20-sentyabrdan, ya'ni turmush o'rtoq'i armiya safiga chaqirilganidan boshlab unga nafaqa berilmagan. Bu kabi holatlar respublikaning boshqa bir qator viloyatlarida ham kuzatish mumkin. Pensiya miqdorini atayin kechiktirish holatlari ham uchrab turgan. 1944-yil olib borilgan tekshiruvlar natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, harbiy xizmatchilarning oilalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab bo'limlar 1943-yil 30-noyabrdagi 41-a-son buyrug'ini bajarmagan. Harbiy xizmatni o'tayotgan shahar yoki tumandagi barcha harbiy xizmatchilar oilalarining umumiyy hisobini yuritish, nafaqa va pensiya oluvchilarning ish hujjatlarini tekshirish, oilalar tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash, oilani nafaqa yoki pensiya olish huquqidan mahrum qiladigan o'zgarishlar bo'yicha boshlangan ishlar to'liq yakunlamagan. Shu sababdan, Toshkent shahri, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va respublikaning boshqa bir qator tumanlarida ortiqcha pensiya va nafaqa to'langan holatlari yuz bergen.

Biroq ba'zi holatlarda pensiya bo'limlariga tashrif buyurib, qonunan pensiya olmasligini bildirgan shaxslar ham uchrab turgan. Masalan, Toshkentda istiqomat qiluvchi Muxitovaga erining urushda vafot etganligi uchun 93 rubl miqdorida pensiya tayinlangan. Lekin oradan bir oy o'tib, ya'ni 1944-yil 8-fevralda pensiya bo'limiga tashrif buyurib, erining urushdan qaytganligini, shu sabab pensiya to'lashni to'xtatish zarurligini bildirgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, harbiy xizmatchining oilasiga pensiya va yordam puli miqdori oilada mehnatga layoqatli va layoqatsiz oila a'zolari soniga bevosita bog'liq bo'lgan. Shuningdek shahar va qishloqlarda yashaydigan harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga to'lanadigan pensiya miqdorida farqlar mavjud bo'lgan. Bundan tashqari pensiya miqdori harbiy xizmatchi o'limining sababiga hamda uning armiyaga chaqirilishidan ilgarigi xizmatning xarakteriga qarab belgilangan. Shuningdek, ba'zan qonun bo'yicha pensiya va pul yordamlari olishga huquqlari bo'lmagan oilalarga qonundan tashqari pensiya va pul yordamlari to'langan. Aksincha bunday imtiyozga ega bo'lgan oilalarning pensiyasi esa atayin kechiktirilib to'langan yoki umuman berilmagan holatlari uchrab turgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бурхонов Ж. Қариллик пенсияси тўғрисида / Сотсиал таъминот. –1959. –№3.
2. Бояҳмедов Ф. Врач-мехнат экспертизаси ривожланиш йўлида / Ўзбекистон сотсиал таъминоти. – 1967. –№5.
3. Мирзаахмедова С. Сотсиал таъминот босқичлари // Ўзбекистон сотсиал таъминоти. –1978. №1.
4. Об утверждении инструкции о порядке назначения и выплаты пенсий по инвалидности военнослужащим рядового, сержантского и старшинского состава. –Алма-Ата, КазОГИЗ, 1944.
5. Пенсия таъминоти тўғрисида нималарни билиш керак (Ишчи ва хизматчиларнинг пенсия таъминотига доир қоидалар ва нормалар, уларга пенсия тайинлаш учун хужжатлар тайёрлаш тартиби тўғрисида қисқача кўлланма). –Тошкент: Ўзбекистон, 1986.

6. Хаблиева Л. Ч. Государственная политика в области социального обеспечения инвалидов войны в годы Великой Отечественной войны (на примере Владикавказа) // Л. Ч. Хаблиева, З. В. Сосранова // Научный диалог. –2018. –№ 3.
7. Йўлдош Охунбобоев хотириаси. –Тошкент, ЎЗССР давлат нашриёти, 1943.
8. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг конституцияси (Асосий қонун). –Тошкент, Ўздавнашр, 1945.
9. Ўзбекистон совет Социалистик Республикаси ҳукуматининг қарор ва бўйруқлар йифиндиси. 1939 йил 28 январь, №2. Тошкент вилояти Турон кутубхон ахборот кутубхона маркази (67,15, 1-46).
10. Ўзбекистон ССР қонунлари ва Ўзбекистон ССР Олий совети Президиуми фармонлари тўплами (1938-1955). – Тошкент, Ўзбекистон ССР Олий Советининг нашри, 1956.
11. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикаси Қонунлар Олий Совет Президиуми фармонлари ва ҳукумат қарорлари йифиндиси (Биринчи том). – Тошкент. 1947.
12. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-96-fond, 2-ro'yxat, 405-yig'ma jild.
13. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-96-fond, 2-ro'yxat, 408-yig'ma jild.
14. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-96-fond, 2-ro'yxat, 491-yig'ma jild.
15. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-96-fond, 2-ro'yxat, 492-yig'ma jild.
16. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-96-fond, 2-ro'yxat, 503-yig'ma jild.
17. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-837-fond, 32-ro'yxat, 2563-yig'ma jild.
18. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-837-fond, 32-ro'yxat, 4116-yig'ma jild.
19. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-837-fond, 32-ro'yxat, 4549-yig'ma jild.